

**“Ikki eshik orasi” asaridagi okkazional birliklarning ishlatilishi****Ergasheva Ruhshona Toshqobul qizi**

Samarqand davlat universiteti

filologiya fakulteti filologiya va

tillarni o'qitish o'zbek tili 1-kurs

Annotatsiya: maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridagi okkazional birliklarning qo'llanishi keng ochib berilgan va asar mazmuniga ham qisqacha to'xtalib o'tilgan

Kalit so'zlar: “ikki eshik orasi”, okkazional, neologizm, usual, okkazionalizm, tilshunoslik, hikoyalar tizmasi.

O'tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” asarining sujeti va kompozitsiyasini ishlashda mumtoz adabiyot (masalan, Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostoni) da mavjud bo'lgan qoliplash san'atidan ijodiy foydalangan. Roman voqeasi Robiya, Qora amma, Kimsan, Husanov, Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva, Ra'no, Umar zakunchi, Olimjon Komilov singari turli xarakter va turli toifadagi to'qqiz obraz tilidan hikoyalar tizmasi shaklida berilgan. Bu hikoyalar mazmunan o'zaro mahkam bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Shu tariqa ular romanning bir butun, tugal orginal va jozibador sujetni hosil qiladi. Shu bilan bir qatorda yozuvchi asarning mazmunini chuqurroq yoritib berish maqsadida o'zi yangicha so'zlar yaratadi. Bu okkazional hodisa hisoblanadi.



Okkazionalizm atamasi lotincha “occasionalis” soʻzidan olingan boʻlib, lugʻaviy maʼnosiga koʻra “tasodifiy” degan tushunchani bildiradi. Lingvistikaga oid lugʻatlarda unga quyidagicha taʼrif beriladi: “Umum tomonidan qabul qilingan qoʻllashlariga mos kelmaydigan, yakkalik xususiyatiga ega boʻlgan maxsus matn tarkibiga singdirilgan usul, qiyos”.

Tilshunoslikda eskirgan soʻzlar, iboralar, shevaga xos soʻzlar oʻrganilgani kabi yangi maʼnoli soʻzlar ham keng oʻrganilib kelinmoqda. Okkazionalizm va neologizm hodisalari ana shunday yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlardir. Bu hodisalar oʻzbek tilshunosligida juda koʻp olimlar tomonidan oʻrganilib tadqiq qilinib kelinmoqda.

Oʻzbek tilshunosligida O.Toʻxtasinova leksik okkazionalizmlar borasida ish olib borgan. U neologizmlar va okkazionalizmlarning farqi, oʻziga xos xususiyatlari haqida toʻxtalib oʻtgan. “Okkzional soʻzlarning muhim belgilaridan biri uning birir muallifga taalluqli ekanligidir” - deb taʼkidlab oʻtadi O.Toʻxtasinova. Okkazional nutq birligi boʻlib, tilning lugʻat tarkibiga kira olmaydi, chunki u nutq jarayonida kimdir tomonidan faqatgina bir marotaba qoʻllanadi va asar mazmunini kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Okkazionalizm bu nutq hodisasi, maʼlum bir muallif oʻz maqsadini ifoda etishda okkazional birliklardan qurol sifatida foydalanadi. Shu bilan birgalikda yozuvchi okkazional soʻzlar orqali kitobxonga asardagi gʻoya va fikrni tulaqonli yoritib berishga harakat qiladi. Yozuvchi Oʻtkir Hoshimov ham oʻzining “Ikki eshik orasi” asarida ana shunday birliklardan foydalangan. Biz bunga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Lachapoʻshroq, gadavoy

Soʻlkavoy choʻlpilar

Sargʻimtil zahil, kaltai-koʻtoh

Yapasqi, asobiy



Lo'mboz, oppon-soppon

G'azabnok, sog'al

Yotog'on, gardim

Idi cho'rt, kalaminka

Murshag'ami, kikirta

Sekirta, lodachkam

Bag'ar, qizil-shalon

Kizimka, kuymanayotgan

Aptakashka, bolamast

So'xta chiroq, yopiyapa

Qo'pgur, girmon

Zarchavali, mo'ri malah

Barashda, xarilar

Zonder, haddorat

Patnusha, ishbamma

Pushka, to'ng'lih

Kuzur, iliqdimmi

Ya'zxonlik, o'smoqchilab

Joyroston, aka bijiy

Davotqalam, to'mtoq

Makentosh plash, kadroviy



Ismenlab ishlamoq

Sili-simyum

Xemirigayam, shayutpsaamy

Tgacha, yerkana

Domul, aylamaaylama

Gorkom, obshipit

Pommasterimir, rayosttsiam

Hararak, krepsatin

Barbiturat, suvyuqmas

Dalovsha, rombi

Javobini ko'tmay QALTABAQAY barmoqlarini bukib sanab ketdi. Ushbu gapda okkazional birlik “QALTABAQAY” so'zidir. Yozuvchi kalta so'zining o'rniga “QALTABAQAY” so'zidan foydalangan va okkazional so'z yaratgan.

Unisigamas, APTAKASHKA osilamiz gapdagi okkazional so'z “APTAKASH” so'zidir. Yozuvchi “APTAKASH” so'zini “ARAVA” so'ziga sinonim sifatida ishlatgan, ya'ni “ bu aravaga emas, unisiga osilamiz” degan ma'noda.

Potmamniyam yomon demayman-ku, sal LACHAPO'SHROQ. Bu gapdagi okkazionalso'z “LACHAPO'SHROQ” so'zidir. U bo'sh, lapashang degan ma'nolarda ishlatilgan.

Daladan to'ppa-to'g'ri hasharga kelgan kolxozchilar biri loy otib, biri LO'MBOZ bosib, maktab devorini ko'tardi. Ushbu gapdagi okkazional so'z “LO'MBOZ” so'zidir. Bu so'z “LOY BOSISH” degan ma'noni bildiriyapti.



“Pastak eshikni oyog’i bilan tepib, hovli ichkarisiga qarab G’AZABNOK chinqirdi” gapidagi “G’AZABNOK” so’zini “G’AZAB BILAN” deb tushunishimiz mumkin.

“Nima, senga ASOBIY taklif kerakmi?” gapidagi “ASOBIY” so’zi “ALOHIDA TAKLIF” degan ma’noni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Kozim akang ko’p kelganmibu yerga? - dedim O’SMOQCHILAB. Ushbu gapdagi okkazional so’z “O’SMOQCHILAB” so’zidir. U “BILIB BILMASLIKKA OLISH” degan ma’noni ifodalab kelgan, ya’ni Kozim ko’p kelib turishini biladi va bilmaganlikka olish maqsadida yozuvchi “O’SMOQCHILAB” so’zidan foydalangan. Bu esa shu gapning ta’sirchanligini ma’lum darajada boyitgan.

Yuqoridagi okkazional so’zlarning ishlatilishini ko’rib chiqib, shunday xulosaga keldik. Okkazional so’zlar yozuvchining yillar mobaynida orttirgan mahoratlari va tajribalari natijasida dunyoga kelgan kashfiyotlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. GLOBAL BOOKS. Toshkent. 2021
2. Розинтель Д.Э. Теленкова М.АЮ Словарь- справочник лингвистических терминов. М. Просвещение. 1967. С.197
3. Toshaliyeva S. O’zbek tilida okkazional so’z yasalishi; Filol.fanlari nomzodi, - Toshkent, - 1990
4. X.Mirzayev. XX asr o’zbek adabiyoti “Yangi asr avlodi” 2005
5. O’zbek tilining izohli lug’ati